



Shaxsda xayotiy strategiya shakllanishining psixologik xususiyatlari

Abduraxmonova Gulhida Tursunboyevna

Abdurashidov Telman Xudayberdiyevich

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 38-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hayotiy strategiyalarni shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasi haqida fikrlar bildirilgan. Maqolada hayotiy strategiyalarni shakllanishining psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: hayotiy strategiyalar, hayotiy pozitsiya, shakllantirish, hayotiy tasavvurlar, tarkib toptirish, ichki va tashqi ta'sirlar, omillar, muloqot, yondashuv, ijtimoiy yaqinlik.

Hayotning eng murakkab shakli inson hayotidir. U inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir martagina hayot kechirish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmati shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi. Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq, barqaror jamiyatda insonlar sermazmun hayot kechirishadi, notinch davrda esa umr samarasiz o'tadi. Demak, jamiyatimiz qanchalik barqaror va farovon bo'lsa, unda yashaydigan insonlarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo'ladi. Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va o'ziga xosdir.



Bugungi kunda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli qilib shakllantirish, mustaqil mamlakatimizning ishonchli va intellektual salohiyatli fuqarolari etib tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi. Zero, hozirda har qanday jamiyat taraqqiyoti uning bag'rida kamolga etayotgan shaxsning ongi, dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, bir so'z bilan aytganda inson omili bilan bevosita bog'liq ekanligi rad etib bo'lmas haqiqatga aylangan. Shu boisdan ham mamlakatimizda shaxs tarbiyasini izchil va zamon talablariga muvofiq olib borish bugungi kunda, avvalo ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi birinchi darajali vazifa qilib belgilangan. Va buning amaliy isbotini so'ngi yillarda mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning —Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz[1] degan ezgu g'oyasi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ko'rib turibmiz. Darhaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi uchun jamiyatning institutlari mas'uldir. Ayniqsa, barkamol avlodni shakllantirishning amaliyotini ta'minlashda, bu boradagi ilmiy muammolarning yechimini topish, olg'a surilgan nazariy xulosa va tasviyalarni ta'limtarbiya amaliyotiga tadbiq etish jamiyatimizning ota-onalar, tarbiyachi-o'qituvchilar uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yadigan davlat buyurtmasini samarali bajarilishi garovidir. Ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri - shaxs va jamiyat munosabatlarini konstruktiv tarzda yo'lga qo'yish, yoshlarda hayotiy pozitsiyani shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Yoshlar jamiyat hayotiga kirib borar ekan ularda atrof-muhitga, kishilarga, qadriyatlarga va o'ziga nisbatan muayyan hayotiy pozitsiya ham shakllanib boradi. Ular hayotida ro'y beradigan turli-tuman hodisalar muqarrar ravishda ong va dunyoqarashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarda juda og'riqli kechishi ham mumkin. Ba'zida hayotning turli qiyinchiliklari, taloto'plari va evrilishlari oldida yoshlarda o'ziga nisbatan ishonchsizlik, hayotiy mo'ljallarning yo'qolishi, yuksak maqsadlar



qo'yishdan cho'chish, o'z imkoniyatlarini etarlicha baholay olmaslik kabi salbiy hayotiy pozitsiya shakllanishi ham mumkin. Bu esa o'z navbatida yoshlarning jamiyatda o'zlarining munosib o'rnini topa olmasligi, hattoki turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimolini oshiradi. Shu boisdan ham ta'lim- tarbiya jarayoni shaxsda konstruktiv hayotiy pozitsiya shakllanishiga ko'mak berishi zarur. Yoshlarning hayotiy pozitsiyasi hayotda tutgan o'rni va o'z vazifasini to'g'ri anglashi hamda uni ro'yobga chiqarish uchun o'ziga xos yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. U jamiyat uchun yo sermahsul, yo shaxsning passivligiga olib boruvchi cheklangan, barqaror bo'lmagan, mustaqillikka yod bo'lishi mumkin. Olimlarning fikricha, —yoshlik chog'ida o'zini ifodalash, o'zini ro'yobga chiqarishga ehtiyoj paydo bo'ladi, o'zini ro'yobga chiqarish sohasini va uning usullarini tanlash, eng avvalo, yoshlik yillarida yuz beradil[2]. Yoshlar guruhini tahlil qilishda, shuningdek, ularning jamiyatdagi o'rnini, maqomini va rolini ajratib ko'rsatish zarur. Yoshlik har bir inson o'z taqdirini o'zi belgilab olishi, o'z qobiliyati va iqtidorini mumkin qadar ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi muvaffaqiyatli hayot yo'liga etaklovchi yagona to'g'ri yo'lni topishi lozim bo'lgan davr deb hisoblanadi. Bu davr o'z -"Men"ning og'riqli qiyin jarayoni bilan birga kechadi. J.G.Mid ta'rifiga binoan, bu quyidagicha ko'rinish oladi: Yoshlar ulg'ayib, ijtimoiylashtirish jarayonida ularni tayyorlagan dunyoga emas, boshqa dunyoga kelib qoladi. Kattalar tajribasi yaramaydi. Yoshlarni ijtimoiy tuzilmada bir nuqtai nazardan mashg'ulotlarga tayyorlaydilar, tuzilma esa boshqacha, avvalgi pozitsiya unda yo'q[3]. Olimning ushbu fikri bir qarashda keskin va bir tomonlamaday tuyulsa ham, chuqur mushohadaga chorlashi bilan e'tiborga molikdir. Buni hozirgi ta'lim-tarbiyaning bir qator ustuvor xususiyatlari, asosiy tamoyillari bilan bog'lash mumkin. Shaxsning to'laqonli jamiyat a'zosi bo'lib shakllanishida uning o'zligini bilishi va anglashi o'ta muhim masalasidir. Zero, buning zahirida inson ongi va ongsizlik holatlari o'zining sa'yharakatlari va pirovard maqsadini to'la anglab etishi, o'zini o'zi anglash kabi muhim psixologik mexanizmlar yotadi. Agarda ong materiyaning yuksak taraqqiy etgan shakli sifatida faqat insongagina xos ekan, uning tuzilishi,



shakllanishi va rivojlanishi haqidagi malakali bilimga ega bo'lish, kishilarni hoxlagan yo'sinda boshqarish imkonini beradi. Bu esa har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Shu sababli kishilar avval o'zligini bilishi nafaqat o'zining ichki ruhiy olami bilan hamsuhbat bo'lishi, balki atrofidagi voqea va hodisalarga nisbatan muloqot va munosabatini to'g'ri uyushtirishi, uyg'oq bo'lishi zarur. Ana shunday muloqot natijasi o'laroq hayotdagi o'rnini, yashashning asl mohiyatini, o'zligini to'g'ri tushunib, anglay boshlaydi. Bugungi kunda biz o'z maqsadimizga erishish uchun ularda samarali bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratmoqdamiz. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohatlar yosh va barkamol avlodni aqlan, ahloqan kamolga etkazish va unda shaxs sifatlarini tarkib toptirishdan iboratdir. Ma'lumki, ilk o'spirinlik davrida hayotiy strategiyalarni anglash uning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan olganda ilk o'spirinlik davrida hayotiy strategiyalarni shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. o'rganilgan ilmiy manbalar va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi: - shaxsda maqsad va qiziqishlarni shakllanmaganligi hayot haqidagi tasavvurlarni anglanmaganligi bilan izohlanadi; - shaxsning jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligi ularning hayotiy tasavvurlari bilan uzviy bog'liqligini izohlash mumkin; - o'spirinlik davrida hayotiy tasavvurlarni shakllanishi ulardagi hayotiy maqsadlarni anglab etganligi bilan belgilanadi; - o'spirinlik davrida yoshga bog'liq ravishda hayotiy tasavvurlarni reallashishi kuzatiladi; - shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimining qaror topganligi ularning hayotiy tasavvurlari bilan uzviy bog'liq; - o'spirinlik davrida hayotiy uslubning tarkib topganligi hayotiy tasavvurlarni anglanganligining mezoni bo'lishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., Ўзбекистон, 2016. –Б.14.1;
2. Абульханова К.А. Стратегия жизни. -М.: Мысль, 1991. С.255.14;
3. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya. T, 2002.
4. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. T-2003. 16 b
5. Fayzullayeva N.S., Akramova F.A. Pedagogika va psixologiya // o'quv qullanma. Toshkent: TDIU, 2011. 291 b.
6. G'oziyev E.G' Psixologiya. T-1994. –258 b.
7. G'oziyev E.G'. “Psixologiya metodologiyasi” T, 2013 y.
8. G'oziyev E.G'. “Psixologiya muammolar” T, 1999.